# 17-sonli ShARTNOMA

(Kurerlik xizmatini ko'rsatish to'g'risida)

2022 yil"05" yanvar                                                                                    Farg'ona shahri

Shartnoma ikki taraflama bo'lib birinchi tomondan Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish rahbari Y. Xusainov kelgusida "Buyurtmachi" deb yuritiluvchi, ikkinchi tomonidan "O'zbekiston pochtasi" AJ Farg'ona filiali Farg'ona shahar pochta aloqasi bog'lamasi boshlig'i R.R.Karimov kelgusida "Kurerlik xizmati" deb yuritiladi va kuyidagilar xaqida ushbu shartnoma tuzildi.

## 1. ShARTNOMA MAZMUNI

1.1. "Buyurtmachi" xat xabarlarni "Kurerlik xizmati"ga topshiradi, "Kurerlik xizmati" o'ziga "Buyurtmachi" tomonidan topshirgan xat xabarlarni Farg'ona shahri va Farg'ona viloyati xududiga quyidagi shartlarga asosan yetkazib berish majburiyatlarini oladi.

## 2. TOMONLARNING MAJBURIYaTLARI

**2.1. "Buyurtmachi"ning majburiyatlari:**

2.1.1. Xar kuni shanba va yakshanbadan tashqari soat 09-00 dan 17-00 gacha xat xabar olish uchun kelgan kurerga xat xabarlarni topshiradi.

2.1.2. Farg'ona shahri va Farg'ona viloyati bo'yicha shahar, tumanlarga yetkazib berish uchun xat xabarlarni ro'yxatga asosan *(103-sh. Ichki pochta jo'natmalarining ro'yxati)* "Kurerlik xizmati"ga taqdim etadi.

2.1.3. Xat xabarlar konvertlarida ikkita manzil ko'rsatilgan bo'lsa "Kurerlik xizmati" xatlarni ikkinchi manzilga yetkazib beradi.

2.1.4. Xar oyning 25-sanasigacha bajarilgan ishlar yuzasidan "Kurerlik xizmati" tuzgan dalolatnomalarni imzolaydi va xisob kitob qiladi.

2.1.5. Xatlarda jo'natuvchi va oluvchilarning manzillari to'liq va aniq ko'rsatilishi shart.

**2.2. "Kurerlik xizmati"ning majburiyatlari:**

2.2.1. Buyurtmachi joylashgan manzilga kelib "Buyurtmachi"dan Farg'ona shahri va Farg'ona viloyati shahar va tumanlariga yetkazib berish uchun xat xabarlarni qabul qiladi.

2.2.2. Xatlarda manzillar noaniq ko'rsatilgan bo'lsa "Buyurtmachi"ga qaytariladi.

2.2.3. "Buyurtmachi"dan olgan xatlar shakl-119 yoki shakl-22 xabarnomalar orqali shahar va tumanlarga yuboriladi.

2.2.4. "Buyurtmachi"dan qabul qilib olingan xatlarni Farg'ona shahri hududida 3 (uch) ish kunida, Farg'ona viloyatning qolgan shahar va tumanlarga 5 (besh) ish kunida oluvchilar manzillariga yetkazib beradi.

2.2.5. "Buyurtmachi"ga 10 (o'n) ish kuni ichida yetkazib berilgan xatlarni shakl-119 topshirganlik haqidagi xabarnomani qaytaradi.

2.2.6. Xar oyning 25-sanasigacha "Buyurtmachi""Kurerlik xizmatiga" topshirgan ro'yxat asosidagi xatlarga "Kurerlik xizmati" bajargan ishlari bo'yicha dalolatnoma tuzilib "Buyurtmachi"ga taqdim etadi.

2.2.7. Biror xolatga ko'ra "Buyurtmachi" xatlari oluvchiga yetkazib berilmasa bu to'g'risida tasdiqlovchi xujjat taqdim etadi (shakl-20 ma'lumotnomasi).

## 3. XIZMATGA HAQ TO'LASh TARTIBI.

3.1. Xar bir yetkazib berilgan xat uchun "Buyurtmachi", "Kurerlik xizmati"ga ilovada tasdiqlangan maxalliy ta'rif asosida 6500 so'mdan QQS bilan xizmat xaqi to'laydi.

3.2. "Buyurtmachi" o'z tashabbusiga ko'ra "Kurerlik xizmati"ga kelgusida ko'rsatilgan xizmatlari uchun oldindan 15% miqdorda mablag' o'tkazib beradi.

3.3. "Kurerlik xizmati" oldindan to'langan mablag' xisobiga shartnoma shartlari bo'yicha o'z majburiyatlarini bajaradi.

3.4. Agar "Buyurtmachi" aybi bilan topshirilgan xatlarda manzil noaniq ko'rsatilgan bo'lsa, "Buyurtmachi""Kurerlik xizmati"ga 100% xizmat xaqini to'laydi.

3.5. Xizmat xaqi narxnoma o'zgartirish kiritilganda "Kurerlik xizmati" bu xaqida "Buyurtmachi"ga 15 (o'n besh) kun oldin xabar beradi.

Scanned with CamScanner

3.6. Shartnomaning umumiy summasi 175500 sōm.

3.7.“Kurerlik xizmati”“Buyurtmachi”ga o‘n ish kuni ichida yetkazib berilgan xatlarning xabarnomalarini qaytarmasa yoki ushbu xabarnomalar to‘liq to‘ldirilmagan xolda (ya’ni xabarnomaning orqa tarafida xat xabarni olgan shaxsning ismi, familyasi va sharifi ko‘rsatilmasa) qaytarilsa bu xaqda tomonlar o‘rtasida dalolatnoma tuziladi va mazkur xabarnomalar bo‘yicha xizmat xaqqidan 0,5% miqdorida jarima to‘laydi, lekin umumiy to‘lov summasining 50% oshmasligi kerak.

3.8.“Kurerlik xizmati” bajargan ishlariga xizmat xaqi “Buyurtmachi” tomonidan o‘z vaqtida to‘lov amalga oshirilmasa xar bir kechiktirilgan kun uchun “Buyurtmachi”“Kurerlik xizmati”ga to‘lanmagan summaning 0,4 % miqdorida jarima to‘laydi, lekin umumiy to‘lov summasining 50% dan ortiq bo‘lmasligi kerak.

## 4. TOMONLAR JAVOBGARLIGI.

4.1. “Kurerlik xizmati” bajargan ishlariga xizmat xaqi “Buyurtmachi” tomonidan o‘z vaqtida to‘lov amalga oshirilmasa xar bir kechiktirilgan kun uchun “Buyurtmachi” “Kurerlik xizmati”ga 0,5 foizi miqdorida jarima to‘laydi, lekin umumiy to‘lov summasining 50% oshmaslik kerak.

## 5. NIZOLARNING XAL ETISh TARTIBI.

5.1. Xar bir kelib chiqadigan shikoyat, kelishmovchiliklar va boshqa masalalar tomonlarning o‘zaro kelishuviga asosan xal etiladi.

5.2. Xar bir kelib chiqadigan shikoyat kelishmovchiliklar va boshqa masalalar tomonlarning o‘zaro kelishuviga asosan xal etilmasa, bunday xolda Iqtisodiy sudi orqali xal etiladi.

## 6.FORS-MAJOR.

6.1. Tomonlar ushbu shartnomada ko‘rsatib o‘tilgan shartlarni nazorat qila olmagan taqdirda, majburiyatlarni qisman yoki umuman bajara olmaganda (xarbiy xarakatlar, yong‘in chiqishi, suv toshqini, yer qimirlashi va boshqa xolatlarda) agar ushbu xolatlar ta’siri bo‘lsa javobgarlikdan ozod kilinadi. Bunday xolatlarda shartnomaning amal qilish muddati yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan xolatlar tugagunga qadar uzaytiriladi va o‘z kuchida qoladi.

## 7. QO‘ShIMChA ShARTLAR.

7.1. Birorta tomon o‘z xuquq va majburiyatlarini boshqa tomonga yozma ravishda kelishilmagan xolda berishga xaqi yo‘q.

7.2. Shartnomaga kiritiladigan xar qanday o‘zgartirish va qo‘shimchalar tomonlar yozma ravishda taqdim etganda va imzolanganida amalga oshiriladi.

7.3. Barcha ma’lumotlar, xujjatlar va yo‘riqnomalar davlat tilida olib boriladi.

## 8. ShARTNOMANING AMAL QILISh MUDDATI.

8.1. Ushbu shartnoma imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022 yil “31”dekabr kunigacha amal qiladi. Agar shartnoma muddati tugagunga qadar bir oy muddat qolguncha tomonlarning birortasi yozma ravishda uning to‘xtatilishi to‘g‘risida xabar bermasa, shartnoma kelgusi yilga amal qilish muddati uzaytirilgan deb xisoblanadi.

8.2. Ushbu shartnoma tomonlarning o‘zaro kelishuvlariga asosan yoki bir tomonning shartnomalari buzilganligi to‘g‘risida ogoxlantirishiga ko‘ra bekor qilinishi mumkin.

8.3. Shartnoma taraflar tomonidan imzolanib, g‘aznachilik boshkarmasi (bo‘limi)da belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilganidan so‘ng qonuniy kuchga kiradi.

8.4. Ushbu shartnoma ikki nusxada tuzilgan va bir xil yuridik kuchga ega.

## 9. TOMONLARNING MANZILI VA XISOB RAQAMLARI:

| “Kurerlik xizmati” | “Buyurtmachi” |
|---|---|
| Farg‘ona shahar pochta aloqasi bog‘lamasi<br>150100, Farg‘ona shahri Kashtanzor ko‘chasi<br>35-uy, x/r 20210000100155266296<br>AT “Aloqabank” Farg‘ona filiali<br>MFO: 00401, INN: 200833833<br>tel.: 73-244-42-33 | ФАРҒОНА ВИЛОЯТИ ИҚТИСОДИЙ ТАРАҚҚИЁТ ВА КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ БОШ БОШҚАРМАСИ<br>Фарғона ш. Ал-фарғоний кўчаси, 43-уй.<br>Шх/р: 100021860304017011322140002<br>ИНН: 207250945 ОКОНХ:<br>Молия Вазирлиги Ғазначилиги<br>Фарғона ш. ғазначилик бўлинмаси.<br>х/р: 23402000300100001010<br>Марказий банк Тошкент ш. ХККМ<br>МФО: 00014 СТИР: 201122919 |
| Rahbar ____________<br>(imzo)<br>M.U.<br>Xuquqshunos ____________ | Rahbar ____________ Юлдашев<br>(imzo)<br>M.U. |

Scanned with CamScanner